



TASVIRIY SAN AT DARSLARIDA TASVIRNI TO G RI CHIZISHDA PERSPEKTIV POZITSION VA METRIK MASALALARDAN AMALDA TO GRI FOYDALANISH

Toshpulatov Faxriddin Urolovich

TerDUPI o qituvchisi

Abdufataxova Sug'diyona Abdiqayum qizi

TerDU 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at darslari tabiiy hodisalar bilan amaliy bog'liqligi tasvirni to'g'ri chizishda perspektivada pozitsion va metrik masalalardan amalda foydalanish, turli metrik masalalar ishlanishi va turlari haqida ma' umot keltirib o' tilgan.

Kalit so' zlar: Tasviriy nur, metrik, pozitson, chiziqlar, chizma, o' zaro parallel to' g' ri chiziqlar, nisbatda bo' lish, tabiat.

O sib kelayotgan yosh avlodning estetik didini va madaniyatini rivojlantirish hamda ma' naviy dunyoqarashini o' stirishda tasviriy san' atning o' z o' rni bor. Yaratilgan tasviriy san' at asarlarida falsafiy fikr, zamondan rozilik hissi yoki uning aksi, tabiat go' zallidan zavqlanish va boshqa psixologik vaziyatlar o' z aksini topadi. Rassom o' z fikrini, jamiyat, atrof-muhit va dunyoga nisbatan bo' lgan munosabatini chiziqlar, shakllar, ranglar orqali ifoda etadi.

San' atshunoslar esa rassomning fikrini tomoshabinlarga, san' at ixlosmandlariga, umuman olganda xalqqa yozma yoki og' zaki tarzda yetkazib beradi.

Deni Didro aytganidek "Qaysi millat o' z farzandlariga rasm chizishni xuddi xat-savodni, o' qish va hisobni o' rgatgandek qunt bilan o' rgatsa, bu millat fan, madaniyat va san' atda boshqa xalqlardan o' zib ketadi". Shu sababdan ko' plab rivojlangan mamlakatlarda tasviriy san' atga katta e' tibor beriladi va u ta' lim muassasalarida, ayniqsa umumiyo' rta ta' lim maktablarida alohida fan sifatida o' qitiladi. Bunga misol qilib tasviriy san' atni yosh avlodga mukammal darajada

o' rgatadigan Yaponiya davlatini keltirishimiz mumkin.

Barchamizga ma' lumki Yaponiya iqtisodiy va o' z tarixini ulug' lash jihatdan rivojlangan mamlakatdir. Bizning mustaqil mamlakatimizda ham umumiyo' rta ta' lim maktablarining 1-7-sinflarida, tasviriy va amaliy san' atga taalluqli kasb-hunar kollejlarida, pedagog va rassom tayyorlovchi oliy ta' lim muassasalarida tasviriy san' at fani o' qitiladi. Tasviriy san' at fani bevosita perspektiva fani bilan chambarchas bog' langan. Uyg' onish davridan hozirgi kungacha faoliyat olib borgan ko' plab buyuk rassomlar bu ikki fanning bir-birini to' ldiruvchisi ekanligini qayd etganliklarini ko' rishimiz mumkin.

Masalan, Uyg' onish davrining yorqin namoyondasi Leonardo da Vinci (1452-1519) perspektivaga oid shakllangan barcha ma' lumotlarni o' zlashtirgan holda o' zining ham noyob, ham o' ta yangi g' oyalarini bilan rivojlanir. Bu buyuk siymo "Perspektiva tasviriy san' atning rulidir" deb yozgan.



Taniqli rus rassomi A.G.Venetsiyanov (1780-1847) ilmiy bilimsiz va perspektiva qonuniyatlarisiz rassom arzigulik biror asar yarata olmasligini ta' kidlagan. Rus pedagog-rassomi N.N.Gerom (1831-1894) perspektivani rasmdan ajratish mumkin emasligini, uni har bir rassom bilishi shartligi, rasmni avval chizib, keyin uni perspektiva qoidasi bilan to‘ g‘ rilash kabi teskari ish qilmaslik kerakligi va perspektiva rassomlar ishida yo‘ lchi yulduz bo‘ lishi lozimligini yozib qoldirgan.

Yuqorida keltirilgan shuncha ilmiy asoslar, o‘ quv adabiyotlari mavjud bo‘ lishiga qaramay nafaqat maktab darsliklari, balki kasb-hunar ta’ limi va oliv ta’ lim muassasalarining tasviriy san’ at fanlariga tegishli o‘ quv adabiyotlarda rasm chizishda foydalaniladigan perspektiva qonun-qoidalari ko‘ rsatib berilmay kelmoqda. Ya’ ni rassom (yoki rassom-pedagog)lar perspektiv tasvir qurish usullarining amaliy ahamiyatini o‘ zlari yozgan darslik va o‘ quv qo‘ llanmalarida ko‘ rsata olmayapdilar. “Rasm chizuvchi uchun eng qulay usul, bu fazoviy buyumning rasmini (tasvirini) markaziy proyeksiyalash usulida bajarish orqali amalga oshirishdir” .

Perspektiv tasvir ham aynan markaziy proyeksiyalash usulida, kengaytirilgan apparatda bajariladi.

Perspektiva bu - insonning ko‘ rish xususiyatini hisobga olgan holda markaziy proyeksiyalash usulida bajarilgan tasvirdir. Bundan ko‘ rinib turibdiki tasviriy rasm va perspektiv tasvir bir-biriga uyg‘ unlikda bajariladi.

Agar tasviriy san’ at asari bu qoidalarga amal qilinmasdan yaratilsa, ilmli kuzatuvchilar “bu rasmda perspektiva yo‘ q, “ oddiy kuzatuvchilar” “bu rasmdagi narsalar o‘ ziga o‘ xshamabdi” deydilar. Perspektiva fani realistik rasm yaratish

uchun ilmiy manba vazifasini o‘ taydi va narsalarni ko‘ z ko‘ zimiz bilan qanday ko‘ rsak, uni shunday tuzilishda tasvirlashga yordam beradi.


Biz ushbu ilmiy maqolamizda rasm chizishda perspektivada o‘ rganiladigan pozitsion va metrik masalalarning amaliy ahamiyatini ko‘ rsatib berishni maqsad qildik. “Fazodagi obyektlarning markaziy proyeksiyasi o‘ zining yaqqolligi va o‘ ziga o‘ xhashligi bilan ajralib turadi. Biroq bu obyektni tashkil qiluvchi geometrik shakllar orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni tekshirishga qaratilgan masalalarni o‘ qitish va uni talabalar tushunishi hamda o‘ zlashtirishida muammolar vujudga kelgan”. Pozitsion va metrik masalalar nafaqat perspektiva fanida zarur, balki undan bevosita rasm chizish jarayonida foydalanish orqali buyum rasmining konstruksiyasini to‘ g‘ rilagini ta’ minlash imkoniyati ham mavjud.

Masalan, buyumdan tushayotgan soya chegarasini aniqlashda to‘ g‘ ri chiziqli tekislik yoki sirt bilan kesishgan nuqtasini aniqlashga oid pozitsion masala yoki interyerdagи buyumning ko‘ zgudagi aks tasvirini chizishda kesmaning haqiqiy uzunligini aniqlashga oid metrik va ikki tekislikning kesishgan chizig‘ ini qurishga qaratilgan pozitsion masalalarni tatbiq qilishga to‘ g‘ ri keladi.


Quyida rasm chizishda qo‘ llaniladigan pozitsion va metrik masalalarning amaliy ahamiyatini ketma-ketlikda ko‘ rsatib o‘ tamiz.

1. O‘ zaro parallel to‘ g‘ ri chiziqlar o‘ tkazishga oid pozitsion masala va uning rasm chizishdagи o‘ rni. O‘ zaro parallel to‘ g‘ ri chiziqlar perspektivada yagona bitta nuqtada, ya’ ni ularning cheksizlikdagi xosmas nuqtasining perspektivasida uchrashadi.

Ushbu qoidaga asoslanib kub, parallelepiped, bino va to‘ g‘ ri yo‘ llarning rasmini to‘ g‘ ri chizish imkoniyati ta’ minlanadi. 1-rasmda berilgan e to‘ g‘ ri chiziqli parallel bo‘ lgan C nuqtadan parallel bo‘ lgan I chiziqli o‘ tkazish qoidasi ko‘ rsatilgan.




a




b

1-rasm


2-rasmdada esa berilgan vertikal AB, gorizontal AD va AC qirralari orqali parallelopipedning rasmini chizish bosqichlari mazkur qoidalar asosida chizib ko‘rsatilgan.



a)



b)




c)

2-rasm


2. Kesmani teng bo‘laklarga bo‘lishiga oid pozitsion masala va uning rasm chizishdagi o‘rnini.

3-rasmda narsalar tekisligida yotgan kartinaga parallel (a), kartinaga perpendikular (c) va narsalar tekisligiga perpendikular (b) AB to‘g‘ri chiziq kesmasini berilgan nisbatda bo‘lish qoidasi ko‘rsatilgan.


Mazkur qoidadan binolarning, yo‘llardagi daraxt va simyog‘ ochlarning rasmini chizishda, aks tasvirlarning perspektivasini qurishda amaliy foydalanish mumkin. Yuqoridagi qoidalar



a)




b)



c)

3-rasm

yordamida 4-rasm, **a** dagi bino va unda joylashgan eshik - derazalar o‘rnini yoki 4-rasm, **b** dagi simyog‘ ochlarning joylashuvini, **c** da kesmaning ko‘zgudagi aks tasvirini to‘g‘ri chizish mumkin bo‘ladi.



Ushbu qoidadan foydalanib interyerlarda joylashgan jihozlarning ko‘zgudagi aks tasvirini to‘g‘ri qurish mumkin bo‘ladi.

Perspektivadagi deyarli ko‘plab pozitsion va metrik masalalardan rasmni to‘g‘ri chizishda amaliy foydalanish mumkin. Xulosa qilib aytganda rasm chizish uchun perspektiva qoidalaridan foydalanish uni ilmiy asosda to‘g‘ri bajarilishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Odilov P.O. Perspektiva. - T., TDPU, 2000.
2. Valiyev A.N. Perspektiva. — T., TDPU, 2006
3. Uralovich T. F. CONDUCTING CLASSES ON FINE ARTS BASED ON INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – №. ICDSIIL. – C. 3-3.
4. Tashimov N. E., Toshpulatov F. U. Activating Students in Building Intersection Line by Quadratic Transformations Method //www. auris-verlag. de. – 2018.
5. Toshpulatov F. U., Norqochqorov R. E. O., Maxmudova X. N. Q. XALQ AMALIY SAN'ATINING CHIZMACHILIK FANI BILAN BOGLIQLIGI //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 2.